

## YURTIMIZDA HAR BIR FUQARONING HUQUQ VA ERKINLIK LARI DAXLSIZDIR

**Eshchonov Qobuljon Kamol o'g'li**

QORAQALPOG'ISTON QISHLOQ XO'JALIGI VA AGROTEXNOLOGIYALAR  
INSTITUTI, yurisprudensiya yo'nalishi 1-kurs talabasi.

[qobuleshchonov005@gmail.com](mailto:qobuleshchonov005@gmail.com)

+998934071600

**Annotasiya:** Ushbu maqolada inson huquqlari va erkinligining hozirgi kundagi obro'si, inson sha'ni qadr-qimmati qanchalik ulug'ligi, ularning huquqlari oliy qadriyat sifatida davlatimiz tomonidan doimiy himoyada ekanligi, davlatimiz tomonidan olib borilayotgan islohotlar haqida mulohaza qilamiz.

**Kalit so'zlari:** Inson, huquq, erkinlik, konstitutsiya, deklaratsiya, ombudsman, prinsip.

Kirish: Tarixdan barchamizga ma'lumki davlatlar turli jangu-jadalar, bosqinchilik urushlari bo'lib o'tgan, buning natijasida fuqarolarning huquq va erkinliklari toptalib kelingani bu o'sha davr uchun takrorlanib turuvchi hodisa hisoblangan. Millatimiz faxri kelajak avlod tarbiyasida alohida e'tirof etiladigan ajdodlarimiz Amir Temur o'z davlatini boshqarishda fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini ta'minlash maqsadida Temur Tuzuklari asosida shunday deyiladi. "Agar boy amaldor yoki boshqa insonlar tomonidan bechoralarga jabr zulm yetkazilsa ularga yetkazilgan zararlar to'liq qoplab berilishi kerak toki ular o'z hollariga kelishsin". Aytishim mumkinki, erkinlik kishini o'z istagi bo'yicha ish tutishi, insonning siyosiy, ma'naviy ta'qibdan, tarixlardan, zo'ravonlikdan himoyalanganligini anglatadi. Xususan, qonun erkinligini ta'minlash, zo'ravonlikdan himoyalanganligini anglatadi. Shuningdek, qonun erkinligini ta'minlash orqali fuqarolarni shaxsiy huquq va erkinliklarini himoya qilish uning manfaatlarini asrab avaylash, shaxsiy qadr-qimmatni himoya qilish jamiyatda har bir insonning o'z o'rnini ularning huquq va erkinligi davlat tomonidan ta'minlanadigan, himoya qilinadigan g'ururi, sha'ni, qadr-qimmatini amalga oshirish, munosib yashash sharoitiga ega bo'lish, zo'rliklardan himoya qilinish, jamiyatda o'z o'rniga ega bo'lishdan iboratdir. Hayotimizdagi bizning huquq va erkinliklarimiz kecha yoki bugun paydo bo'lgan emas, u qadimdan shakllanib bo'lgan va hozirgi kunga qadar rivojlanib va mustahkamlanib kelayotgan tushunchadir. Uning mavjud bo'lishi va har tomonlama rivojlanib borishi zamon taqozosidir.

Yurtimizda har bir fuqarolarning huquq va erkinliklarni taminlash ularni huquqiy daxlsizligini kuchaytirish borasida qator islohatlar o'tkazilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida va boshqa qonun hujjatlarida davlat inson huquqlari bo'yicha bir qator majburiyatlar olgan bo'lib, ularga xususan davlat o'z faoliyatini inson va jamiyat farovonligini ko'zlab, ijtimoiy adolat va qonuniylik prinsiplari asosida amalga oshirishi, davlat xalq irodasini ifoda etib, uning manfaatlariga xizmat qilishi, davlat organlari va mansabdor shaxslar jamiyat va fuqarolar oldida mas'ul ekanliklari, O'zbekiston Respublikasi o'z hududida istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlarning tillari, urf-odatlar va an'analari hurmat qilinishini ta'minlashi, ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratishi, O'zbekiston Respublikasi o'z hududida ham uning tashqarisida ham o'z fuqarolarini huquqiy himoya qilish va ularga homiylik ko'rsatishni kafolatlashi kabilarni misol qilib keltirish mumkin. Davlat inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmati va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat ekanligidan kelib chiqib, o'tgan yillar mobaynida insonning shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy huquqlarini ta'minlash maqsadida bir qator ishlarni amalga oshirdi. Xususan, shaxsiy huquqlarni ta'minlash va himoya qilish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Jinoyat, Jinoyat-protsessual, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi Kodekslari, "Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to'g'risida"gi, "Axborot olish kafolatlari va erkinligi to'g'risida"gi, "Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to'g'risida"gi, "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi, "Odam savdosiga qarshi kurashish to'g'risida"gi qonunlarni qabul qildi. Mustaqil O'zbekiston Respublikasida inson huquqlari va erkinliklari o'zbek millati va jamiyatining eng ustivor va oliy qadriyatidir. Darhaqiqat, mustaqillik tufayli mamlakatimizda inson huquqlari va erkinliklari kafolati uchun zarur shart sharoitlar vujudga keltirildi. Bu eng avvalo, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida o'z ifodasini topib, unda inson huquqlari va erkinliklari oliy qadriyat sifatida kafolatlab qo'yildi. "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, - deb ta'kidlaydi O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov „Jamiyatda demokratiya rivojlanishi va inson huquqlariga rioya qilinishining kafolatidir". Bosh qomusimizning 13-moddasida: "O'zbekiston Respublikasida demokratiya umuminsoniy prinsiplarga asoslanadi, ularga ko'ra inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmati va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi" deb bayon etilgan. Inson va fuqarolarning huquqlari hamda erkinliklari borasida Konstitutsiyasida ko'plab o'ta muhim ijobiy jihatlar mavjud.



Xulosa: Shuni aytishimiz joizki, insonning sha'ni, qadr-qimmatini, uning erkinligi insonni o'zi kabi davlat uchun ahamiyatlidir. Har qanday qonun va qarorlar fuqarolar manfaatini, ularning ertasi va kelajagini belgilaydi. Hozirgi yuksalayotgan va tobora ravnaq topayotgan davlatimizda inson qadri, uning erkinligi va huquqiga bo'lgan e'tibor nafaqat bizning ko'zimizda balki jahon xalqlari oldida ham bamisoli oyna kabi qilayotgan ishlarimiz eng buyuk maqsadlarimiz sari bosayotgan qadamlarimizda yaqqol namoyon bo'lmoqda. Fuqarolarni haq-huquqlarini, sha'nini, qadr-qimmatini ulug'lash, uni himoya qilish bugungi kun haqiqatidir.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. <http://www.temurtuzuklari.uz>
2. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1997-y., № 4-5, 102-modda)
3. <https://hozir.org/demokratik-jamiyat-qurishda-inson-huquqlari-va-erkinliklarini.html>
4. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 13-modda